

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib




### Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



### Dastlabki maʼlumotlar

2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 494,3** mld soʻmni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,4 %**ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 053,9** mld soʻmni (**2,0** martaga oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 440,4** mld soʻmni (**1,0** % ga kamaygan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **661,1** mld soʻmni (**2,6** % ga oshgan) tashkil etdi.

### Tarkibiy qism, ulushlarda



### Uyushmagan savdo, mld soʻm




## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 494,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan 112,4 %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmining barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 76,6 % va yirik korxonalar hissasiga 23,4 % to'g'ri keldi.



### ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida 42,4 % ko'rsatkich bilan 1 907,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

### ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida 1,9 % ulush bilan 85,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 3 440,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 1,0 % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 76,6 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqa'l'a (99,9 %), Gurlan (99,2 %), Yangiariq (99,1 %) va Bog'ot (98,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.




Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2022- yil yanvar-may
		2021- yil yanvar-may

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi 12,4 foizga oshib, yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida – 131,0 %, Bog'ot tumanida – 105,1 %, Gurlan tumanida– 103,8 %ni tashkil qildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	4 494 335,6	112,4	1 053 892,4	2,0 m.	3 440 443,2	99,0
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 907 271,0	131,0	961 845,6	2,3 m.	945 425,4	91,7
Xiva	145 711,2	102,7	10 757,8	100,7	134 953,4	102,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	199 617,9	105,1	2 370,5	120,4	197 247,3	104,9
Gurlan	359 260,2	103,8	2 846,3	62,8	356 413,9	104,4
Qo'shko'pir	151 826,6	102,5	7 650,3	79,4	144 176,4	104,1
Urganch	363 998,7	101,0	15 395,7	67,7	348 603,1	103,3
Hazorasp	378 685,4	100,5	22 786,0	94,0	355 899,3	101,0
Tuproqqa'l'a	85 731,9	101,0	126,0	67,1	85 605,8	101,1
Xonqa	251 964,8	100,6	13 965,3	129,7	237 999,5	99,3
Xiva	110 014,1	100,7	1 936,2	82,7	108 077,9	101,1
Shovot	282 009,5	101,2	7 611,6	165,6	274 397,8	100,1
Yangiariq	167 177,7	100,6	1 515,1	127,5	165 662,5	100,4
Yangibozor	91 066,8	101,2	5 086,0	85,1	85 980,8	102,3

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,0** martaga oshdi va **1 053,9** mlrd soʻmni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **23,4 %** ulushiga toʼgʼri keladi.




### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʼra, **3 440,4** mlrd soʻmni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **1,0 %**ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **76,6 %**ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,9 %), Gurlan (99,2 %) va Yangiariq (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 23,4 %ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (50,4 %), Xiva shahri (7,4 %) va Hazorasp tumanida (6,0 %) kuzatildi.



2022- yilning yanvar-may oylari holatiga

ko'ra, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi o'rtacha **2 331,7** ming so'mni (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **10,6 %** ga oshgan) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahri (129,3%), Bog'ot (103,2 %) va Gurlan (102,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (12 974,6 ming so'm), Gurlan (2 358,9 ming so'm) va Hazorasp (1 902,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may

### Asosiy tarkib, foizda




### Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




2022- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi

**661,1** mlrd soʼmni tashkil etib, 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **2,6** % ga oʼsdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʼullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʼjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **299,4** mlrd soʼmni (oʼzgarish surʼati 97,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **361,7** mlrd soʼmni (oʼzgarish surʼati 107,8 %) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 299,4 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 361,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagи tadbirkorlar (YTT)ni qо'shmagан holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

**XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may**

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	661,1	102,6	299,4	97,0	361,7	107,8
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	134,0	104,3	91,5	105,2	42,5	102,6
Xiva	16,0	159,5	15,1	150,6	0,9	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	108,5	112,7	18,1	128,0	90,4	110,1
Gurlan	89,4	145,8	22,5	123,7	66,9	155,1
Qo'shko'pir	52,3	111,2	33,4	101,9	18,9	132,3
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	79,0	109,3	46,0	124,5	33,0	93,4
Tuproqqa'l'a	5,9	29,5	3,3	17,8	2,6	159,8
Xonqa	40,6	66,1	27,7	62,9	12,9	74,4
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	100,2	82,8	24,0	65,8	76,1	90,2
Yangiariq	19,4	112,3	10,3	138,9	9,1	92,4
Yangibozor	15,9	170,4	7,5	2,3 m.	8,4	138,9



5,1  
mlrd so'm

Tuzlamalar



133,5  
mlrd so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



18,4  
mlrd so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)



47,1  
mlrd so'm

Non va non  
mahsulotlari



7,3  
mlrd so'm



6,6  
mlrd so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

Tuxum



46,5  
mlrd so'm

Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)



11,8  
mlrd so'm

Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2,8  
mlrd so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may

6,4  
mlrd so'm



Ziravorlar

13,9  
mlrd so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **299,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**133,5** mlrd so'm) to'g'ri keldi.


2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **361,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagи qoramollar savdosi **330,6** mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi **28,2** mlrd so'mni, parrandalar savdosi **2,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 %ni tashkil etib, **72,0** mlrd so'mga yetdi va 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **8,0** %ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,7** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining  
o'sish sur'atlari, foizda**



**XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
2022- yil yanvar-may


	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	72017,6	108,0	2389,3	582,5	69628,3	105,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	31291,2	113,4	2389,3		28901,8	104,7
Xiva	2749,4	100,9			2749,4	100,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	2870,0	101,7			2870,0	101,7
Gurlan	2132,8	105,1			2132,8	105,1
Qo'shko'pir	1164,2	101,8			1164,2	101,8
Urganch	13721,0	103,3			13721,0	106,6
Hazorasp	4004,5	102,5			4004,5	102,5
Tuproqqa'l'a	1414,4	104,1			1414,4	104,1
Xonqa	1979,3	102,9			1979,3	102,9
Xiva	1892,0	100,4			1892,0	100,4
Shovot	5999,6	113,5			5999,6	113,5
Yangiariq	1460,6	104,3			1460,6	104,3
Yangibozor	1338,6	102,8			1338,6	102,8

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2022- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 756,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **14,6 %ga** oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **335,4** mlrd so'mni (**4,6 %ga** ko'paydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 420,8** mlrd so'mni (**17,3 %ga** ko'payish) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo	<b>1 756,2 mlrd so'm, 100 %</b>
Yirik korxonalar	<b>335,4 mlrd so'm, 19,1 %</b>
Mikrofirma va kichik korxonalar	<b>1 420,8 mlrd so'm, 80,9 %</b>

### Eng yuqori ulushga ega hududlar




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Hazorasp tumani (56,1 m.), Xonqa tumani (10,8 m.) va Bog'ot tumanida (186,8%) qayd etildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Hazorasp tumani (176,7%), Bog'ot tumani (166,6%), Xonqa tumani (159,4%) va Yangibozor tumanida (143,2%) kuzatildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 756 228,6	114,6	335 447,5	104,6	1 420 781,1	117,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	779 320,9	108,9	85 993,5	79,8	693 327,4	114,1
Xiva	68 302,4	114,1	291,6	71,5	68 010,8	114,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	63 207,0	166,6	40 221,6	186,8	22 985,4	140,0
Gurlan	76 226,0	112,7	46 695,6	111,2	29 530,5	115,1
Qo'shko'pir	11 561,8	114,3	3,7	95,6	11 558,0	114,3
Urganch	330 720,2	103,0	114 285,6	79,1	216 434,6	122,6
Hazorasp	35 473,4	176,7	12 901,5	56,1 m.	22 571,9	113,7
Tuproqqal'a	27 559,9	142,9	8,2	51,6	27 551,8	143,0
Xonqa	110 027,6	159,4	34 344,7	10,8 m.	75 682,9	114,9
Xiva	152 093,1	117,4	1,4	6,8	152 091,7	117,4
Shovot	26 878,6	114,8	8,0	26,7	26 870,6	114,9
Yangiariq	26 454,7	115,1	42,0	25,2	26 412,7	115,8
Yangibozor	48 402,8	143,2	650,1	96,3	47 752,7	144,2

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-may



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **1 420,8** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **17,3 %**ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **80,9 %**ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shko'pir, Tuproqqa'l'a, Xiva va Shovot tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (36,4 %) va Gurlan tumaniga (38,7 %) to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	2022- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09